

ULUG'BEK MIRZONING SAMARQAND SALTANATIGA KELISHI VA UNING TANGALARI.

Bekmurodova Umida
Mutaxasislik: 5A120301-O'zbekiston tarixi
1-bosqich

Ulug'bek Mirzo Amir Temurning nabirasi va Shohrux Mirzoning o'g'li bo'lib, u 1394 yil 22 martda G'arbiy Erondagi Sultoniya shahrida tug'ilgan. Onasi Gavharshod og'a turk amirlaridan G'iyosiddin Tarxonning qizi edi.

Ulug'bekning asl ismi Muhammad Tarag'ay bo'lib, bu nom Amir Temur padari buzrukvorining nomi edi, hali temuriy shahzodalardan hech biriga berilmagandi. Lekin ko'p o'tmay, chaqaloqning haqiqiy ismi tildan tushib, uning o'rniiga Ulug'bek deb atala boshlangan. Buning sababi nimada? Bu haqda manbalarda hech qanday ma'lumot uchramaydi. Fikrimizcha, (Amir) Temur huzurida yosh bolani Muhammad Tarag'ay deb chaqirishga istihola qilishgan, chunki Tarag'ay bobosining oti, Sharq xalqlari udumida esa kattani ulug'lash odat bo'lgan. Har holda, (Amir) Temurni "bek" deb, otasi Muhammad Tarag'ay bahodirni hurmat yuzasidan "katta bek", ya'ni "ulug' bek", deb atashgan. "Ulug'bek" nomi berilgan bolani mazkur ramziy ism bilan, ya'ni beklarning ulug' deb atashgan bo'lsalar ajab emas. Shunday qilib, Muhammad Tarag'ay Ulug'bekka mubaddal bo'lib, abadiylashib ketgan bo'lishi kerak [1], degan fikrga keladi temurshunos olim Turg'un Fayziyev.

Ulug'bek Mirzo yoshligidanoq, bobosi Amir Temur saroyida tarbiyalanib, unda saroya yig'ilgan olimu fuzalolar ta'sirida ilm fanga katta qiziqish uyg'onadi. U Samarqand saltanatida 40 yil (1409-1449) hukmronlik qilgan. Musulmon olamida Ulug'bek Mirzodan boshqa biron podshoh bu qadar ilm-fanda dovrug' taratmagan. Alloma podshox, Samarqandni ilm-fan maskaniga aylantirdi, falakkiyot fani rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Ulug'bek Mirzo davrida Turon mamlakatida ilm-fan va madaniyat gulladi, savdo-sotiq, ravnaq topdi.

Ulug'bek Mirzo davrida garchi Samarqand va Buxoroda kumush tangalar zarb qilingan bo'lsa ham, ular o'z nomi bilan emas, balki padari buzrukrori Shohrux, Mirzoning nomi bilan chiqarildi. Ulug'bek Mirzo otasi Shohrux, Mirzo vafotidan keyingina o'z nomidan kumush pullarni zarb qilishga kirishdi. Bunday kumush pullarni zarb qilish ishlari Samarqand va Hirotda faqat ikki yilu yetti oygina davom etdi. Shuning uchun ham Ulug'bek Mirzo nomi bilan zarb qilingan kumush tangalar kam uchraydi va noyob hisoblanadi.

Shohrux Mirzoning kumush tangalarida Amir Temur tangalariga xos tamg'a va Sohibqironning nomi yo'q. Ulug'bek Mirzo tangalarida esa Amir Temur davlatining tamg'asi bilan uning nomi esga olinadi. Masalan, tangada

Hazrat Temur Kuragon himmatidin Ulug'bek Ko'ragon so'zim; zarb Samarqand. (853/1449 yil, UzTDM, N-47/81)" deb yozilgan bo'lib, Ulug'bek Mirzodan boshqa bironta avlodи o'z nomi bilan Amir Temurning nomini qo'shib tanga zarb qilmagan. Ulug'bek Mirzo xuddi ana shunday tangalarni 851/1447 yili Xorazmda, 852/1448 yili esa Hirotda zarb ettirgan[2].

Ulug’bek Mirzo Turonda savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish va bozorda savdo muomalasida yuritilgan mis pullarni tartibga keltirish maqsadida 1428-1429-yillari pul islohoti o’tkazib, mis pullarni yangi ko’rinishdagi shaklda zARB qildi. Bizga ma’lum bo’lgan Sharq manbalari ichida Ulug’bek Mirzoning pul islohoti o’tkazganligi haqida hech qanday ma’lumot uchramaydi. Lekin uning davrida Movarounnaxrda zARB qilingan mis pullarni chuqur o’rganish bu davrda pul islohoti o’tka- zilganligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, numizmatika fani XV asrning birinchi yarmida O’rta Osiyoning iqtisodiy hayotida muhim rol o’ynagan pul islohoti o’tkazilganligini moddiy dalillar bilan isbotlab, Turoñ tarixini o’rganishda yana bir sahifani ochib berdi.

O’rta Osiyo tumanlaridan topilgan juda ko’p dafinalar (xazinalar)ni o’rganish jarayonida bizga shu narsa ayon bo’ldiki, Ulug’bek Mirzo 1420 yillarda birinchi marta pul islohoti o’tkazib, zARB qilgan mis pullarning old tomonidagi besh burchak shaklida tasvirlangan yulduzcha o’rtasiga: *ZARB Samarkand adliya* deb yozdirgan bo’lsa, orqa tomoniga esa ya’ni: bu pullarning zARB qilingan yili 823/1420-yil deb arabcha so’zlar bilan yozilgandir.

Lekin 823/1420 yillari Samarqanda zARB qilingan mis pullar 832/1428-29 yillari Buxoroda zARB qilingan pullar bilan bir dafinada topilmaydi yoki juda kamdarkam uchraydi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin: 1420 yillari Samarqandda zARB qilingan tangalar (mis pullar) 1428-29 yillari Buxoroda zARB qilingan pullar bilan almashtirilgan, ya’ni 1420 yillari Samarqanda zARB qilingan eski mis pullar yig’ib olinib, o’rniga yangi ko’rinishdagi pullar muomalaga chiqarilgan.

1428-29 yillarda zARB qilingan pullarning old tomoni markaziy qismiga Buxoro yoki zARB Buxoro deb yozigan bo’lib, uning chor atrofi turli gulsimon naqshlar bilan bezatilgan. Orqa tomoniga esa fi at *tarix sanai isna salosina va sammia, ya’ni: 832/1428-29 YIL*) kabi pullar zARB qilingan sanalar bitilgan.

Bunday mis pullar faqat Buxoroda emas, balki butun Urta Osiyoda ko’p tarqalgan. 832/1428-29 yillarda zARB qilingan pullardan bunday ko’p topilishining asosiy sababi, bu pullar ushbu sana bilangina zARB qilinib qolmasdan, balki undan keyingi yillarda chiqarilgan pullarga ham 1428 yil sanasi qo’shib zARB qilinganidandir. Xuddi shunday pullar Movarounnahrdagi boshqa shaharlarda ham Xuroson, Andigon (Andijon), Qarshi, Termiz, Samarqand va Shoxruhiyada ham zARB qilingan bo’lsa, keyinroq bunday pullarni zARB qilish, asosan, Buxoroda markazlashtirilgan edi. 832/1428-29 yillari zARB qilingan mis pullar XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida ham savdo muomalasida bo’lgan. Lekin bu pullarning ustiga har bir shahar o’z tamg’asini urib muomalaga chiqargan[3].

Shohruk Mirzo vafotidan so’ng Xuroson hukmronligini uning nabirasi G’iyosiddin Boysunqur Mirzoning o’g’li Aloud-Davla egallab olgan edi.

Shohruk Mirzoning barcha o’gillari vafot etgan bo’lsa ham, ammo to’ng’ich o’gli Ulug’bek Mirzo hali hayot edi. U ota taxtiga da’vogar bo’lib, o’z o’g’li Abdullatif Mirzoni (1428-1450 yy.) Xuroson taxtiga o’tqazish maqsadida 1448 yili bahorda 90 ming kishilik qo’shin bilan Aloud-Davlaga qarshi hujumga o’tdi. Aloud-Davla jangda yengilib Mashhadga, so’ngra ukasi Abulqosim Bobur oldiga Kuchonga qochib ketdi. Garchi Ulug’bek Mirzo g’alaba qilgan bo’lsa ham, lekin bu jang keyin Ulug’bek Mirzo bilan uning o’g’li Abdullatif Mirzo o’rtasida nizo tug’ilishiga sabab

bo'ldi. Chunki Hirotdan 14 farsax narida bo'lган Tarnob jangida Abdullatif Mirzo jasorat ko'rsatib, g'alabani ta'minlagan bo'lsa ham, Ulug'bek Mirzo g'alaba sha'nini sevikli o'g'li Abdulaziz Mirzo nomiga yozdirgan edi.

Undan tashqari, Ulug'bek Hirotni egallagach, o'g'li Abdullatif Mirzoga Ixtiyoriddin qal'asiga kirishni man etdi. Bu qalani Shohruh Mirzo hayotlik davrida Abdullatif Mirzoga in'om qilganligidan, u bobosi bilan 1446 yili Isfaxon tomon yurishga ketayotib, qal'aga o'ziga tegishli bir necha ming misqol oltin va kumush buyumlar hamda 200 tuman pulni berkitib ketgan edi. Ulug'bek Mirzoning yuqoridagidek bu qal'aga kirishni man etishi Abdullatifning o'z otasiga nisbatan noroziligini keltirib chiqqargan sabablardan biri edi.

1449 yili bahorda Ulug'bek Mirzo Xurosonni qaytadan zabit etish uchun taraddud ko'rayotgan bir paytda taqdir taqozosi bilan o'z o'g'li Abdullatif Mirzoga qarshi jang qilishga majbur bo'ldi.

Bu jangda Ulug'bek Mirzo behuda qon tukmaslik uchun o'z ixtiyori bilan taslim bo'ldi. Abdullatif Mirzo taslim bo'lган otasini Ka'batullo ziyoratiga jo'natish haqida farmon berdi.

Yo'lga chiqqan Ulug'bek Mirzo hali Samarqanddan uzoqlashmagan edi. Orqadan chopar kelib shu atrofdagi qishloqda bir kun to'xtab turish haqida farmon yetkazdi. Ulug'bek Mirzo chorasiz buyurilgan qishloqqa to'xtadi. Qosh qoraygach, Ulug'bek Mirzo o'tirgan hujraga Abbas ismli shaxs kirib, sobiq hukmdorni tashqariga sudrab olib chiqdi, ariq bo'yiga cho'kkalatib qilichning bir zarbi bilan boshini tanidan judo qildi. Bu mudhish voqeа 1449 yil 25 oktyabrda yuz bergen edi.

Adabiyotlar.

1. Е.А.Давыдович. История денежного обращения средневековой Средней Азии. М., «Наука». 1983 г.
2. А.К.Марков. Инвентарный каталог. № 154-157, 671-бет.
3. Т Файзиев Улугбек авлодлари Т. “Езувчи” 1994 й. 4-бет.

4

Magistrantlarning XIV ilmiy konferensiyasi materiallari-2014